


2019-yil 1-oktyabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyatimizda 4543 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2152 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4180 ta (19,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 25291 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-oktyabr holatiga 25291 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19,8 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 23,6 % savdo, 13,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 13,2 % sanoat, 12,3 % qurilish, 4,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,5 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,1 % axborot va aloqa hamda 26,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, ming birlik		01.10.2019 yil	
	01.10.2018 yil	01.10.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	21111	25291	4180	100,0

shundan:

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2721	3378	657	13,4
Sanoat	2463	3336	873	13,2
Qurilish	2598	3301	503	12,3
Savdo	4844	5968	1124	23,6
Tashish va saqlash	761	878	117	3,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	869	1147	278	4,5
Axborot va aloqa	248	290	42	1,1
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	478	590	112	2,3
Boshqa turlari	6129	6603	474	26,1

Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Qarshi shahri (5289 ta), Chiroqchi (2019 ta), Koson (2008 ta), Qarshi (1977 ta) va Kitob (1722 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mirishkor (847 ta), Muborak (920 ta) hamda Nishon (942 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 24703 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4191 ta (20,4 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,6 % savdo, 13,3 % sanoat, 13,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 12,3 % qurilish, 4,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,5 % tashish va saqlash, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa va 26,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Qarshi shahri (5093 ta), Chiroqchi (1984 ta), Koson (1963 ta), Qarshi (1933 ta) va Kitob (1695 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mirishkor (843 ta), Muborak (887 ta) hamda Nishon (937 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar- sentyabr oylarida 4543 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'satkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,9 martaga ko'pdir.


Yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Qarshi shahri (871 ta), Qarshi (392 ta), Chiroqchi (362 ta) va Kasbi (315 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Muborak (133 ta), Dehqonobod (175 ta), G'uzor (186 ta), Nishon (189 ta), Mirishkor (223 ta) hamda Koson (263 ta) tumanlari korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'satkichi past darajani aks ettirgan.

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1295 ta), sanoat (969 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (736 ta), qurilish (509 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (43 ta), sog'lqnii saqlash va ijtimoiy xizmatlar (106 ta), hamda tashish va saqlash (115 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxona va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



Tijorat korxonalarini
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1- oktyabr holatiga 19927 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 8388 ta, oilaviy korxonalar - 1124 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 9914 ta va boshqalar 501 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat
ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiyl soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Mas'uliyati
cheklangan jamiyati




Xususiy korxona



Oilaviy
korxona




Unitar korxona



Aksiyadorlik
jamiyati



Boshqalar




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2019-yil 1- oktyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 178 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 108 taga yoki 2,4 % martaga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Afg'oniston va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-oktyabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 178 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxona va tashkilotlarning eng yuqoriisi Qarshi shahri (50 ta), Qarshi (17 ta), Kitob (14 ta) va Nishon (14 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Mirishkor (4 ta) va Kasbi, Shahrисabz tumanlari hamda Shahrисabz shahar (5 ta) hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 132 tasi qo'shma korxonalar, 46 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Qashqadaryo viloyati	178	100
Qarshi sh.	50	28,1
Shahrisabz sh.	5	2,8

Tumanlar:

G'uzor	10	5,6
Dehqonobod	10	5,6
Qamashi	12	6,7
Qarshi	17	9,6
Koson	11	6,2
Kitob	14	7,9
Mirishkor	4	2,2
Muborak	7	3,9
Nishon	14	7,9
Kasbi	5	2,8
Chiroqchi	6	3,4
Shahrisabz	5	2,8
Yakkabog'	8	4,5


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 87 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 71 taga ko'paygan. Tumanllar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Qarshi shahar (21 ta yoki jamidagi ulushi 24,1 %), Qarshi tumani (10 ta yoki 11,5 %) va Nishon tumanlari (9 ta yoki 10,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Muborak (2 ta yoki 2,3 %), Shahrisabz (2 ta yoki 2,3 %), Kasbi (2 ta yoki 2,3 %) va Mirishkor tumani (3 ta yoki 3,4 %) hissalariga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 10 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 10 ta, Qozog'iston Respublikasi - 9 ta, Afg'oniston - 9 ta va Turkiya Respublikasi - 8 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-sentyabr oylarida Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (50 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (15 ta), savdo (7 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (5 ta), faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa axborot va aloqada (1 ta) tashkil etgan.

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1- oktyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 19769 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1- oktyabr holatiga qaraganda 21,4 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4226 tasi (21,4 %) Qarshi shahri, 1616 tasi (8,2 %) Qarshi, 1594 tasi (8,1 %) Koson tumani hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

• Eng katta ulushi

- Qarshi sh 21,4 %
- Qarshi 8,2 %
- Koson 8,1 %
- Chiroqchi 7,9 %
- Shahrisabz sh. 6,9 %
- Kitob 6,8 %
- Qamashi 6,7 %
- Yakkabog' 6,5 %

• Eng kichik ulushi

- Dehqonobod 4,8 %
- G'uzor 4,4 %
- Shahrisabz 4,3 %
- Kasbi 3,8 %
- Nishon 3,6 %
- Muborak 3,5 %
- Mirishkor 3,1 %


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 19769 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 5803 tasi (29,4 %) - savdo, 3238 tasi (16,4 %) - sanoat, 3230 tasi (16,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3010 tasi (15,2 %) - qurilish, 1103 tasi (5,6 %) – yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 836 tasi (4,2 %) - tashish va saqlash, 438 tasi (2,2 %) - sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1838 tasi (9,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-sentyabr oylarida 4198 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,8 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Qarshi shahri (808 ta), Qarshi (348 ta), Chiroqchi (338 ta) va Kasbi (292 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Muborak (124 ta), Dehqonobod (159 ta), Nishon (170 ta), G'uzor (178 ta) hamda Mirishkor (196 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**





Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1287 ta), sanoatda (965 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (733 ta), qurilishda (508 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (43 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (88 ta) hamda tashish va saqlashda (115 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1- oktyabr holatiga 1148 tani tashkil etib, ulardan 1124 tasi yoki 97,9 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 1,7 martaga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

Faoliyat ko'rsatatyotgan oilaviy korxonalarni
hududlar kesimida soni, birlikda

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 31,5 % yoki 354 tasi sanoat, 20,3 % yoki 228 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,6 % yoki 209 tasi savdo, 16,4 % yoki 184 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,9 % yoki 33 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,6 % yoki 18 tasi qurilish, 0,8 % yoki 9 tasi tashish va saqlash, 0,5 % yoki 6 tasi axborot va aloqa hamda 7,4 % yoki 83 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa axborot va aloqa, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Qashqadaryo viloyati	490	100
Qarshi sh.	75	15,3
Shahrisabz sh.	78	15,9
<i>Tumanlar:</i>		
G'uzor	23	4,7
Dehqonobod	4	0,8
Qamashi	22	4,5
Qarshi	47	9,6
Koson	7	1,4
Kitob	26	5,3
Mirishkor	3	0,6
Muborak	10	2,0
Nishon	14	2,9
Kasbi	5	1,0
Chiroqchi	54	11,0
Shahrisabz	86	17,6
Yakkabog'	36	7,3

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida 490 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,2

martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Shahrисабз tuman (86 ta), Shahrисабз shahar (78 ta), Qarshi shahar (75 ta) va Chiroqchi tumanlari (54 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Mirishkor (3 ta), Dehqonobod (4 ta) hamda Koson (7 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 36,1 % yoki 177 tasi sanoat, 22,9 % yoki 112 tasi savdo, 21,0 % yoki 103 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 13,7 % yoki 67 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,8 % yoki 9 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % yoki 5 tasi qurilish, 0,4 % yoki 2 tasi axborot va aloqa hamda 3,1 % yoki 15 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g'ri kelmoqda.

**Statistik registrlarni yuritish bo'lumi
Tel.:71-230-84-10 (11)**